

**VOYAGA YETMAGANLARDA XULQI OG'ISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI****Obloqulova Shohista Xaydar qizi**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

70310301-Psixologiya mutaxassisligi magistranti.

shohistaobloqulova1@gmail.com +99877-999-75-21<https://doi.org/10.5281/zenodo.17516768>

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar xulq-atvoridagi og'ishlar (deviant xulq-atvor) ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda o'smirlik davrida tajovuzkorlik (jumladan, L.M. Semenyuk tasnifi bo'yicha yoshga va jinsga oid farqlar) namoyon bo'lish shakllarining o'zgarishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, V.V. Kovalyov va N.P. Fetiskin kabi olimlarning huquqbuzarlikka doir ta'riflari asosida deviant xulq-atvor dezadaptatsiyaning patogen va asotsial shakli sifatida yoritiladi. Maqola xulqiy og'ishlarning oila, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va axborot texnologiyalarining salbiy ta'siri kabi asosiy sabablarini ko'rsatib, psixologik profilaktika va korreksiya ishlarining muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Xulqi og'ish, deviant xulq-atvor, tajovuzkorlik, dezadaptatsiya, o'smirlik davri, profilaktika.

Аннотация. В данной статье анализируются социально-психологические особенности отклоняющегося поведения (девиантного поведения) несовершеннолетних.

Рассматривается изменение форм проявления агрессивности в подростковом возрасте, включая возрастные и гендерные различия по классификации Л.М. Семенюк. На основе определений В.В. Ковалева и Н.П. Фетискина, девиантное поведение освещается как патогенная и асоциальная форма дезадаптации. В статье также обозначены ключевые причины девиаций (семейное воспитание, социально-экономические факторы, негативное влияние информационных технологий) и подчеркивается важность психологической профилактики и коррекции.

Ключевые слова: Девиантное поведение, отклоняющееся поведение, агрессивность, дезадаптация, подростковый возраст, профилактика.

Abstract. This article analyzes the socio-psychological characteristics of deviant behavior in minors. It examines the changing forms of aggression in adolescence, including age and gender differences based on L.M. Semenyuk's classification. Based on the definitions provided by V.V. Kovalyov and N.P. Fetiskin, deviant behavior is discussed as a pathogenic and antisocial form of disadaptation. The article identifies the key causes of deviations (family upbringing, socio-economic factors, and the negative impact of information technologies) and highlights the importance of psychological prevention and correction measures.

Key words: Deviant behavior, delinquency, aggression, disadaptation, adolescence, prevention.

O'smirlik davrida deyarli har bir o'smir ko'p qiyinchiliklarga duch keladi, u o'zini va o'zligini topishga harakat qiladi. O'smirlik davridagi eng qimmatli psixologik o'zlashtirish - bu o'z ichki dunyosini ochishdir, bu davrda o'z-o'zini anglash, shuningdek, o'z taqdirini aniqlash muammolari paydo bo'ladi va bu muammolarni qanday bartaraf qilsam boladi? nega aynan bunday voqealar meni hayotimda ro'y bermoqda? degan savollar yuzga keladi. shuningdek, o'zini o'zi bilishga intilish, o'z qobiliyatlari, o'smir boshqa odamlar bilan munosabatlarda o'zini

izlaydi; Bola uchun yagona haqiqat tashqi dunyo bo'lib, undan o'ziga kerakli ma'lumotlarni izlashga, topishga va o'z hayotiga tadbiiq etishga bolgan xohish yuzaga keladi.

O'smirlik davrida hatto obyektiv, shaxsiy bo'lmagan ma'lumotlar ham o'smirning o'z-o'zini anglash, ichki dunyosini tahlil qilish va hayotiy savollarga javob izlash ehtiyojini kuchaytiradi. Bu jarayon introspektiv faoliyatni faollashtiradi — ya'ni o'smir o'z his-tuyg'ulari, fikrlari, orzulari va muammolari haqida chuqur o'ylashga moyil bo'ladi.

O'smirlarda bilvosita yo'ki bevosita tajovuzkorlikning namoyon bo'lish shakllarining o'zgarishi bilan tavsiflanadi. L.M.Semenyuk o'smirlik davrining turli bosqichlarida o'smirlarda tajovuzkorlikning namoyon bo'lishining har xil tipik belgilari mavjudligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, 10-11 yoshli bolalar jismoniy tajovuzkorlik bilan ajralib turadi. 12-13 yoshli odamlarda negativizm eng aniq namoyon bo'ladi va jismoniy va og'zaki tajovuzkorlikning ustunligini ko'rsatadi. 14-15 yoshda o'smirlarda bilvosita tajovuzkorlik birinchi o'ringa chiqadi va jismoniy tajovuzkorlik, shuningdek, shaxsiy negativlik darajasi ortadi; Shuningdek, tajovuzkor reaksiyalarning kuchida gender farqlari mavjud. O'g'il bolalar jismoniy tajovuzkorlik reaksiyalarining ustunligi bilan ajralib turadi, qizlar tajovuzni ifodalashning bilvosita usullariga, masalan, og'zaki tajovuz, shuningdek, negativizm agressiyaga ko'proq murojaat qilishadi.[1.61]

O'smirlar orasidagi jinoyatchilikning asosiy sabablari sifatida quyidagi muammolarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Oiladagi tarbiya yetishmovchiligi – oilaviy muhitning salbiy ta'siri, ota-onalarning befarqligi, doimiy oilada yuzaga keladigan otaning onaga yo'ki onaning otaga bolgan agressiv munosabatlari yoki noto'g'ri tarbiyaviy usullaridan kelib chiqadigan muammolar.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar – kambag'allik, ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik, tengqurlari tomonidan doimiy squvga olinishi yo'ki turli zo'ravonliklarga uchrashi kabi omillar yoshlarni jinoyat yo'liga boshlashi mumkin.

Ta'lim tizimining kamchiliklari – maktab va kollej o'quvchilariga ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yetarlicha berilmasligi, ta'lim sifati pastligi.

Mahalla va jamiyatdagi nazoratning sustligi – mahalliy hamjamiyat va jamiyat tomonidan yoshlarning xulq-atvori ustidan e'tiborning sustligi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining salbiy ta'siri – internet va ijtimoiy tarmoqlarda zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentlarning yoshlar ongiga salbiy ta'siri.

O'smirlarda deviant xulq-atvorning shakllanishi biofiziologik, ijtimoiy-iqtisodiy va tarbiyaviy omillarga bog'liqdir. Yoshlar tarbiyasida ota-onalar, o'qituvchilar, mahalla faollari va boshqa mas'ullar o'rtasidagi hamkorlik juda muhimdir. O'smirlarning ijobiy rivojlanishini ta'minlash uchun ularning ehtiyojlari va qobiliyatlari inobatga olinishi lozim. Bu orqali jinoyat motivlari va jinoiy xatti-harakatlarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-psixologik deformatsiyalar ko'payib, o'smirlar orasida deviant xulq-atvorning turli shakllari keng tarqalmoqda. Bu holat jinoiy faoliyatga jalb qilinish xavfini oshiradi, chunki ko'plab o'smirlarning ongida me'yor va og'ish o'rtasidagi chegaralar noaniqlashmoqda. Natijada, ijtimoiy qadriyatlar va qonuniy me'yorlarga mos kelmaydigan hayot tarzi tarafdorlari ko'paymoqda. Ushbu o'sish o'smirlarning ijtimoiy moslashuvining buzilishlari bilan bog'liq bo'lib, jiddiy ijtimoiy muammo hisoblanadi va ilmiy yondashuvni talab qiladi

Deviant xulq-atvor — axloqiy va huquqiy me'yorlardan chetga chiqishni anglatadi. Oxirgi o'n yilliklarda uning ko'payishi dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Bu xulq-atvor ko'plab ko'rinishlarga ega: qonunbuzarlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, sarsonlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa salbiy holatlar.

Ularning ko'pchiligi o'zaro bog'liq bo'lib, birining kuchayishi ikkinchisiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, ichkilikbozlik bezorilik va zo'ravonlik jinoyatlariga, giyohvandlik esa moliyaviy jinoyatlarga olib kelishi mumkin.

Mahalliy olimlar deviant xulq-atvorni o'smirlarning murakkab ijtimoiy muhitga moslashishda yuzaga keladigan patogen, psixosotsial va asotsial xususiyatlarga ega bo'lgan dezadaptatsiya shakllaridan biri sifatida qaraydilar (dezadaptatsiya "de—" — lotincha prefiks bo'lib, "qarshi", "inkor", "buzish", "adaptatio" — lotincha adaptare ("moslashtirmoq") fe'lidan olingan bo'lib, "moslashish", "moslashuv" degan ma'noni bildiradi.[2.132]. Ularning ta'kidlashicha, bu xulq odatda mavjud ijtimoiy me'yorlardan og'ishlar — ya'ni ijtimoiy normalarning buzilishi bilan ifodalanadi.

Bunday buzilishlar "g'ayritabiiy" yoki "me'yoriy doiralardan chetga chiqish" shaklida namoyon bo'lib, ko'pincha jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me'yorlarga zid bo'ladi.

Shu bilan birga, bu hodisa klinik chegaralar ichida bo'lib, qattiq psixopatologik holatlarga olib kelmasligi mumkin.

A.E. Lichko o'smirlar klinik psixologiyasida "huquqbuzarlik" tushunchasini shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvi doirasida, kichik antisotsial xatti-harakatlar bilan chegaralangan fenomen sifatida kiritgan.[3.16] V.V. Kovalyov esa huquqbuzarlikni voyaga yetmaganlarning og'ir jinoyatlarda ko'rsatiladigan xatti-harakatlarining bir qismi sifatida tahlil qiladi. N.P. Fetiskin fikricha, huquqbuzarlik bu shaxsning o'z jamiyatida o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan og'ish qiluvchi xatti-harakatlari bo'lib, bolalar va o'smirlarning murakkab ijtimoiy muhitga moslashuvdagi buzilishlarning ijtimoiy-psixologik shaklidir.

Huquqbuzarlik o'smirning o'smirlik va yoshlik davridagi ijtimoiy-psixologik moslashuvi bo'lib, u jamiyat tomonidan qoralangan bo'lsa-da, shaxsning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Masalan, o'zini qadrlash, tengdoshlar guruhida qabul qilinish, avtonomiya hissini ta'minlash kabi. Ba'zi hollarda, balog'atga yetmagan jinoyatchilar uchun xavfli xulq-atvorning o'zi asabiy hayajonlantiruvchi kuchga ega bo'lib, bunday holatlarda ularni to'xtatish qiyin kechadi.

Natijada turli salbiy muammolar yuzaga keladi, shu sababli psixolog va o'qituvchi sifatida har bir o'quvchi yoshlar bilan individual shug'ullanib profilaktika ishlarini olib borishimiz, salbiy og'ishlar yuzaga kelayotgan o'quvchilar bilan esa turli korreksiya ishlarini olib borib, jamiyatimiz uchun sog'lom avlodni voyaga yetkazib berish, bizning asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ushbu tadqiqot voyaga yetmaganlar xulq-atvoridagi og'ishlar (deviant xulq-atvor) muammosiga zamonaviy psixologik yondashuvlarni integratsiyalash orqali yechim izlashga qaratilgan. Xulosa shuni ko'rsatadiki, deviant xulq-atvor shaxsning murakkab ijtimoiy muhitga moslashuvda yuzaga keladigan, patogen, psixosotsial va asotsial xususiyatlarga ega bo'lgan dezadaptatsiya shaklidir.

1. Tajovuzkorlikning yoshga bog'liq dinamikasi: O'smirlik davrida tajovuzkorlikning namoyon bo'lish shakllari yoshga qarab o'zgaradi. L. M. Semenyuk tasnifiga ko'ra, 10–11 yoshli bolalarda jismoniy tajovuzkorlik ustun bo'lsa, 12–13 yoshda negativizm yaqqol namoyon bo'lib, jismoniy va og'zaki tajovuzkorlik ustunlik qiladi. Keyinchalik, 14–15 yoshda bilvosita tajovuzkorlik birinchi o'ringa chiqadi, shuningdek, shaxsiy negativlik darajasi ortadi. Tajovuzkor reaksiyalarda gender farqlari ham kuzatiladi: o'g'il bolalar jismoniy tajovuzkorlikka, qizlar esa ko'proq og'zaki tajovuz va negativizm kabi bilvosita usullarga murojaat qilishadi.

2. Huquqbuzarlikning ijtimoiy-psixologik mohiyati: Huquqbuzarlik tushunchasi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi:

- A. E. Lichko uni shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvi doirasidagi, kichik antisotsial xatti-harakatlar bilan chegaralangan fenomen sifatida kiritgan.

- V. V. Kovalyov huquqbuzarlikni voyaga yetmaganlarning og'ir jinoyatlarda ko'rsatiladigan xatti-harakatlarining bir qismi sifatida tahlil qiladi.

- N. P. Fetiskin uni jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan og'ish qiluvchi xatti-harakatlar hamda bolalar va o'smirlarning murakkab ijtimoiy muhitga moslashuvidagi buzilishlarning ijtimoiy-psixologik shakli deb hisoblaydi. Ushbu xulq-atvor garchi jamiyat tomonidan qoralansa-da, o'smirning o'zini qadrlash, tengdoshlar guruhida qabul qilinish va avtonomiya hissini ta'minlash kabi shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi mumkin.

3. Profilaktika va korreksiya zarurati: Deviant xulq-atvorning shakllanishi biofizilogik, ijtimoiy-iqtisodiy va tarbiyaviy omillarga bog'liqdir. Xususan, oiladagi tarbiya yetishmovchiligi, ijtimoiy-iqtisodiy omillar (kambag'allik, ishsizlik), ta'lim tizimining kamchiliklari, jamoat nazoratining sustligi va zamonaviy axborot texnologiyalarining salbiy ta'siri asosiy sabablar sirasiga kiradi.

O'smirlar orasida deviant xulq-atvorning o'sishi ijtimoiy-psixologik deformatsiyalar ko'payib, me'yor va og'ish o'rtasidagi chegaralarning noaniqlashishi bilan bog'liq bo'lib, bu jinoyiy faoliyatga jalb qilinish xavfini oshiradi. Shuning uchun, psixologlar va o'qituvchilarning asosiy vazifasi — har bir o'quvchi yoshlar bilan **individual shug'ullanib, profilaktika** ishlarini olib borish, hamda salbiy og'ishlar yuzaga kelayotgan o'quvchilar bilan **korreksiya** ishlarini amalga oshirib, jamiyat uchun sog'lom avlodni voyaga yetkazishdir. Yoshlar tarbiyasida barcha mas'ullar o'rtasidagi **hamkorlik (ota-onalar, o'qituvchilar, mahalla faollari)** muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Semenyuk, L. M. (yil). O'smirlar tajovuzkorligining namoyon bo'lish shakllari va ularning o'zgarishi. Psixologiya ilmiy tadqiqotlari.
2. Беличева С. А. Основы превентивной психологии. «СОЦИАЛЬНОЕ ЗДОРОВЬЕ РОССИИ» 1994-г.
3. Андрей Евгеньевич Личко — реформатор и консерватор в психоневрологии в одном лице (воспоминания ученика). Научный журнал Медицинская психология в России (2012, № 5 (16)).